

TILSHUNOSLIKDA FUTBOL MUHLISLARI NUTQINING TADQIQI VA TALQINI

Xasanov Zafar Baxtiyorovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili 2-fakulteti yoshlar masalalari

va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21425439>

Futbol muxlislari nutqining lingvosemiotik xarakteristikalarini o'rganishda O.A. Pankratovaning yondashuvini qo'llash maqsadga muvofiqdir, zero uning dissertatsiyasida ishlab chiqilgan “diskurs-tahlil usuli ta'sir ko'rsatish niyatlarini bosqichma-bosqich aniqlash va bu niyatlarning verbal vositalarini eksplitsitsiya qilish uchun” qo'llanilgan¹. Futbol muxlislari nutqida ham shunga o'xshash ta'sir ko'rsatish strategiyalari mavjud, ammo ular ko'proq guruhiiy identifikatsiya va emotsional ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Mazkur strategiyalar aynan stadion va onlayn muhitlarda muxlislar jamiyatining koheziasini ta'minlovchi muhim vosita vazifasini bajaradi.

Ye.P. Mukminova tomonidan taklif etilgan tasnifga ko'ra, futbolga oid yigirma atama mavjud: APZ (tayanch markaziy zonasi), Bundesliga (Germaniya oliy ligasi), but(s) (futbol oyoq kiyimi), dubl-ve (ikki marta gol urish), insayd (ichki hujumchi), mundial (jahon chempionati), Maradona aylanishi, tayanch zona, ofsayd (o'yindan tashqari holat), penalti (jarima zarbasi), qisqa paslash, Premer-liga (Oliy liga), erkin zarba, stopper (markaziy himoyachi), streyker (to'purar hujumchi), TTD (texnik-taktik harakatlar), futbol, futbolchi, futzalchi va chempionship (championat)². Futbolga oid ushbu ro'yxat professional terminologiya bilan bir qatorda turli darajadagi muxlislar tomonidan qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga oladi.

N.A. Ayakulov tomonidan ta'kidlanganidek, “o'zbek sport terminologiyasida ko'p miqdorda anglitsizmlar mavjud bo'lib, bu ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar tomonidan turli sport turlari uchun tegishli texnologiyalarning rivojlanishi bilan izohlanadi”³. O'zbek sport tilida inglizcha unsurlar keng qo'llanadi. Bunga sabab sifatida ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda sport tarmoqlarining texnik va tashkiliy jihatdan ilg'or rivojlanishi, ya'ni, yangi sport uskunalari, qoidalari yoki metodlari odatda ingliz tilida nomlanadi va shu holat ularni boshqa tillarga, jumladan, o'zbek tiliga ham to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishiga olib keladi. Demak, sport terminologiyasidagi anglitsizmlar nafaqat tilshunoslik jarayoni, balki sportning xalqaro darajadagi modernizatsiyasi va globalizatsiyasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bu hodisa futbol muxlislari nutqida ham yaqqol namoyon bo'ladi, chunki ular to'g'ridan-to'g'ri inglizcha terminlarni o'z nutqlariga kiritadilar.

Muxlislar nutqining stadion muhitidagi performativ xususiyatlari alohida tadqiq qilishni talab etadi. K.File va T.Worlledge tomonidan olib borilgan etnografik tadqiqot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy futbol muxlisligi oddiy “tomoshabin nutqi”dan ko'ra murakkabroq ijtimoiy-lisoniy hodisa bo'lib, u stadion ichidagi performativ muloqot, onlayn platformalarda

¹ Панкратова О.А. Лингвoseмиотические характеристики спортивного дискурса: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2005. – С. 3.

² Мукминова Е.Р. Спортивная терминология как показатель спортивной лексики и языка спорта // Молодой ученый. – 2018. – № 39 (225). – С. 208.

³ Ayakulov N.A. Anglicisms in Sport Terminology of the Uzbek Language and Its Difficulties in Translation // Eastern Academic Journal. – 2019. – № 9. – P. 54.

tarqaluvchi ko'pkanalli diskurs va milliy kulturaga bog'langan atamashunoslik qatlamlari kesishmasida yuzaga keladi. Stadion muhitida bir xil "muhlis obrazi" mavjud degan tasavvur uzoq yillar hukmron bo'lib kelgan bo'lsa ham, lingvistik etnografiya yondashuvi uni parchalab ko'rsatadi: masalan, Angliyadagi bir stadionda uch xil sektor uch xil "muxlislik ovozi"ni ishlab chiqadi – bir tomonda yakkama-yak shior va chorlovlarga tayangan jamoaviy jarang, boshqasida "bilimdon" baholovchi suhbatlar, uchinchisida esa tanqidiy, hatto "qarshi" ohanglar⁴. Muxlislik nutqi ierarxik emas, balki ko'plikdagi identifikatsion amaliyotdir.

Rus tilidagi tadqiqotlar muxlis nutqini onlayn-muhitda ham batafsil tasvirlaydi: forumlar va ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'ladigan "sport diskursi"da ishtirokchilar ko'p ovozli (polifonik) muloqotni quradilar. A.G. Shchitov tomonidan olib borilgan tahlilda "qarshi" sektorni qaratilgan qitiqlovchi yozma-og'zaki formula va shiorlar kuchli rol o'ynaydi deb ta'kidlanadi⁵. Muallif keltirgan stadion shiorlari orasida ijobiy ruhlandırish ("Лучшая команда...") ham, qasoskor kinoya ham uchraydi. "KrIchalka"larning funksional diapazoni shuni ko'rsatadiki, muxlislar nutqi ko'pincha maksimal ekspressivlikka quriladi va shu yo'l bilan "biz-ular" chegaralarini keskinlashtiradi⁶.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikda futbol muxlisleri nutqini o'rganish sport diskursi doirasida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, uning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda interdiskursivlik, terminologizatsiya, metaforik modellashirish, emotsional-ekspressiv vositalar hamda milliy-madaniy omillar muhim tadqiqot obyektlari sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuvlar futbol muxlisleri nutqining nafaqat sport kommunikatsiyasining ajralmas tarkibiy qismi, balki jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy munosabatlar, kommunikativ qadriyatlar va lingvomadaniy jarayonlarni o'zida mujassam etuvchi murakkab diskursiv hodisa ekanligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Панкратова О.А. Лингвосомиотические характеристики спортивного дискурса: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2005. – С. 3.
2. Мукминова Е.Р. Спортивная терминология как показатель спортивной лексики и языка спорта // Молодой ученый. – 2018. – № 39 (225). – С. 208.
3. Ayakulov N.A. Anglicisms in Sport Terminology of the Uzbek Language and Its Difficulties in Translation // Eastern Academic Journal. – 2019. – № 9. – P. 54.
4. File K., Worlledge T. Fan identity and football culture: locating variation in the discursive performance of football fan identities in a UK stadium // Soccer & Society. – 2023. – P. 8-12.
5. Щитов А.Г. Болельщики и фанаты как феномен спортивного дискурса // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. – № 8 (26), ч. I. – С. 212-213.

⁴ File K., Worlledge T. Fan identity and football culture: locating variation in the discursive performance of football fan identities in a UK stadium // Soccer & Society. – 2023. – P. 8-12.

⁵ Щитов А.Г. Болельщики и фанаты как феномен спортивного дискурса // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. – № 8 (26), ч. I. – С. 212-213.

⁶ Щитов А.Г. О'sha asar. – С. 213.